

IMOM SAKKOKIYNING BALOG'AT ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Oriental universiteti

1-kurs magistranti **G'iyosov Muhammad Ali**

Annotatsiya: Mazkur maqolada balog'at ilmining rivojida Imom Sakkokiy tutgan o'rni tahlil qilinadi. Uning “Miftāhu-l-‘ulūm” asari arab adabiyoti, uslubshunosligi va balog'at ilmining muhim manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Muallifning nazariy yondashuvi, uslubiy tasniflari va nutq go'zalligiga oid qarashlari tahlil qilinib, ularning so'nggi davr olimlari va adabiyotshunoslari tomonidan qanday baholanishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Imom Sakkokiy, balog'at, miftāhu-l-‘ulūm, uslubshunoslik, arab adabiyoti, nutq go'zalligi, adabiy tahlil.

Abstract: This article analyzes the contribution of Imam al-Sakkaki to the science of rhetoric. His work *Miftāḥ al-‘Ulūm* is recognized as a significant source in Arabic literature, stylistics, and rhetoric. The paper examines his theoretical approach, stylistic classifications, and views on the aesthetics of speech, as well as how his ideas are evaluated by later scholars and literary critics.

Keywords: Imam al-Sakkaki, rhetoric, *Miftāḥ al-‘Ulūm*, stylistics, Arabic literature, eloquence, literary analysis.

Аннотация: В данной статье рассматривается вклад Имама Саккаки в развитие науки риторики. Его труд «*Мифтах аль-улюм*» признается одним из ключевых источников арабской литературы, стилистики и науки балагата. Анализируются его теоретический подход, стилистическая классификация и взгляды на красоту речи, а также то, как его идеи были восприняты последующими учеными и литературоведами.

Ключевые слова: Имам Саккаки, балагат, Мифтах аль-улюм, стилистика, арабская литература, красноречие, литературный анализ.

Arab tili grammatikasida o'z o'rniga ega bo'lgan, kunimizgacha ahamiyatini yo'qotmagan asarlar ko'p. Ular ichida Muhammad Abdulhay Laknaviy ta'kidlaganidek, «avvalgilarda ham, keyingilarda ham bo'lmagan asar» [153: 231] ta'rifiga ega bo'lgan fundamental manbalar ko'p emas. «Miftahu-l-ulum» asari ana shunday manbalardan biri bo'lib, Sakkokiy asarlarining gultoji hisoblanadi.

Asarning bu darajada mashhur bo'lishi unda Qur'oni karim oyatlarining keng va aniq talqin qilinganligi, oyatlarning grammatik qurilishiga, ularning ifodalanishiga katta o'rin berilganligi bilan bog'liq. Sakkokiy vaqf (to'xtash), tafxim (tovushlarni yo'g'on o'qish), imola (unlilarning moyillashuvi) va bulardan boshqa Qur'onni to'g'ri o'qishda muhim bo'lgan qoidalarni alohida mavzu ostida bayon qilgan. Shu bilan bir

qatorda qoida sababli sodir bo'lgan oyatlardagi morfologik o'zgarishlarni ham tushuntirib bergan.

XIII asrda arab tilshunosligi bo'yicha buyuk iz qoldirgan, Abdulqohir Jurjoni, Mahmud Zamaxshariylarning munosib izdoshi Sirojiddin Abu Ya'qub Yusuf ibn Bakr ibn Muhammad ibn Ali Sakkokiy Xorazmiy Hanafiy hisoblanadi. Sakkokiy haqida manbalarda ma'lumotlar ozdir. Ularda olim haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Sakkokiy va uning yozgan asarlari haqida Zaynuddin Qosim Qutlubg'o [37: 317], Jaloliddin Abdurahmon Suyutiy [106: 115], Abdulhay ibn Ahmad [120: 208], Muhyiddin Abdulqodir [166: 622], Abdulhay al-Laknaviy [153: 232], Umar Rido Kuhala [150: 149], Yoqut Hamaviy Rumiy [171: 518 (1034- raqam)], Shavqi Dayf [121: 542-543], Ismatilla Abdulloh [7: 181] kabi olimlar ma'lumotlar keltirgan.

Jumladan, Abu Fido Zayniddin: «Sakkokiy hijriy 555/1160 yil Jumadul-avval oyining uchinchi kuni, seshanba kuni kechqurun Xorazmning Sakkok qishlog'ida dunyoga kelgan. Sakkokiy 626/1228 yilda vafot etgan» [37: 317].

Sakkokiy Qashg'ar, Badaxshon, Balx va boshqa diyorlda tilshunoslikka oid asarlari bilan mashhur bo'lgan. Mustaf o ibn Abdulloh (Hoja Halifa tahallusi bilan mashhur): «Sakkokiy 30 yoshidan keyin ilm olishni boshlagan, ungacha temirchilik bilan shug'ullangan. Olim o'z davrining barcha ilmlarini olishga harakat qilgan. Xonning vaziri Sa'd Amid fitnasi bilan u umrining oxirgi uch yilini qamoqda o'tkazib, o'sha yerda vafot etgan», deb yozadi [167: 1862].

Muhyiddin Vafo Hanafiy: «Sakkokiyning ustozlari: Sadid Xayyotiy, Mahmud ibn Said, Harisiy va boshqalar. Sakkokiy buyuk imom, she'r, aruz, bayon, ma'nolar ilmlari va arab tili grammatikasini o'ta yaxshi biluvchi olimlardandir. Uning shogirdi Muxtor ibn Mahmud Zohidiydir», degan ma'lumotlarni qayd etadi [166: 622].

Mashhur nemis sharqshunosi Karl Brokkelman arab tilshunosligida muhim o'rin tutgan, uning rivojiga katta hissa qo'shgan olimlarni sanab, Mahmud Zamaxshariydan keyingi o'rinda Sakkokiyni keltirgan [25:171].

Sakkokiy Sharq musulmon olamida keng shuhrat topgan olim edi. Uning ilmiy merosi quyidagilardan iborat:

1. «Miftahu-l-ulum» (مفتاح العلوم – «Ilmlar kaliti»). Abbosiy halifalardan Nosiriddin hukmronligi davrida yozilgan.
2. «Sharhu-l-jumal» (شرح الجمل – «Jumlalar sharhi»). Abdulqohir Jurjoniyning «al-Jumal» asariga sharh sifatida yozilgan.
3. «At-Tibyan» (التبيان – «Bayon»).
4. «Kitabun fi-t-Tilsim» (كتاب في التلسيم – «Tilsim haqida kitob»). Bu asar fors tilida yozilgan.
5. «Munozara ilmi haqida risola» (رسالة في علم المناظرة). K.Brokkelman ushbu asar «Farzandga risola» (الرسالة الولدية) tarzida, shogirdi Muhammad Sochiqli-zodaga atab yozilganligi haqidagi ma'lumotni qayd etgan [96: 267].

6. «Mus'hafu-z-zahrati» (مصنف الزهرات) – «Gullar kitobi»). Bu asar haqida Umar Rido ma'lumot bergan [150: 149].

Sakkokiyning birinchi va mashhur asari bo'lgan «Miftahu-l-ulum» hijriy 595/1205 yillardan keyin yozilgan. Olim asarning yozilish sababi haqida shunday yozadi: «Zamonamning fozil ahllari, fazlni kamolotga yetkazgan zotlar mendan muxtasar qilib, ularga [bir asar] yozib berishimni qat'iylik bilan so'radilar. Bu kabi gaplarni eshitgach, bundan ular to'la xursandchilik bilan bahramand bo'lishlari uchun, har bir zakiy tushunadigan uslubda tasnifladim» [qarang: MU, 1b]. Muallifning mazkur ma'lumotidan asar yuqori saviyada yozilganini bilib olish mumkin. Asarning nomlanishi borasida: «Bu asarda juda yaxshi bilib olish kerak bo'lgan ilmlarni jamlab, «Miftahu-l-ulum» مفتاح العلوم (Ilmlar kaliti) deb nomladim», deb yozgan edi Sakkokiy [qarang: MU, 2b].

«Miftahu-l-ulum» o'n ikki ilmni qamrab olganligi bilan musulmon olamining tom ma'nodagi buyuk kashfiyotiga aylandi. Asar arab tili grammatikasining barcha ilmlarini qamrab olganligi bilan shu sohadagi qolgan manbalardan afzal hisoblanadi.

Asarning bo'limlari haqida muallif: «Bu kitobni uch qismga bo'ldim: sarf ilmi, nahv ilmi, bayon va ma'nolar ilmlari», deb yozgan edi [MU, 2b].

Sarf ilmi so'z yasalishi bilan shug'ullanuvchi ilm ekanligi to'g'risida «Sarf ilmida so'z va u bilan bog'liq qoidalarda murojaat qilinadi» deb yozib, sarf bo'limiga kirish nimalarni qamrab olganligi borasida «Birinchi qism 3 ta faslni o'z ichiga oladi. Bular:

1. Sarf ilmi haqiqati bayoni va uni tadqiq qilishdagi ehtiyoj tushuvchi qoidalarga izoh.
2. Unga yetib borish usuli.
3. Maqsad bilan bog'liq bo'lgan yetarli holat», deb yozgan edi Sakkokiy [MU, 3a].

Sarf ilmiga muqaddima o'laroq Sakkokiy tomonidan keltirilgan yuqoridagi kabi yondashuv sohaga oid boshqa manbalarda kuzatilmaydi. Bu muallifning asar mantiqiy izchillikka, chuqur xulosalarga asoslangan qarashga ega ekanligini ko'rsatib keladi. Sakkokiy bu mavzular doirasida so'zni tashkil qiluvchi eng kichik birlik harf haqida bahs yuritib, o'zidan oldingi olimlarning bu boradagi qarashlariga tayangan holda, arab tilidagi harflarni quyidagi turlarga taqsimlaydi:

«Bilingki, arab tilida 29 ta harf bo'lib, jarangli (الحروف المجورة) va jarangsizga (الحروف المهموسة) bo'linadi» deb birinchi taqsimotda harflarning aniq sonini bayon qilgan [MU, 3b]. Sibavayhi, Mahmud Zamaxshariy ham 29 ta harf ekanligini ta'kidlaganlar [53: 431; 145: 339]. Dastavval, harflar sonining keltirilishidan «alif» va «hamza» alohida mustaqil harf ekanligi bildirish ko'zda tutilgan. Bu o'z o'rnida harflarning soni 28 ta deb aytuvchilarga raddiya o'laroq arab tilida harf 29 ta ekanligini bildirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. As-Sakkokiy, Yusuf ibn Abu Bakr. *Miftāḥ al-‘Ulūm*. Qohira: Dor al-Kutub al-Ilmiyya.
2. Abdulqohir Jurjoniy. *Daloyil al-I’jōz*. Bayrut: Dor al-Ma’rifa, 2003.
3. Abdulqohir Jurjoniy. *Asror al-Baloga*. Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2004.
4. Abduqodirov, A. *Balog‘at va uslubshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi NMIU, 2018.
5. Karimov, H. "Imom Sakkokiy va balog‘at ilmining taraqqiyoti." *Sharqshunoslik ilmi jurnali*, 2020, №4(2), 56–64.
6. Hasanov, S. "Balog‘at ilmi va uning zamonaviy talqini." *O‘zbek tili va adabiyoti*, 2017, №2(85), 20–29.
7. Abdulwahid, S. M. "Imam al-Sakkaki’s Contribution to Arabic Rhetoric: A Historical Overview." *International Journal of Arabic Linguistics*, 2016, Vol. 3(1), 12–22.
8. Al-Xatib, S. *Ilm al-Baloga: Bayan, Ma’ani, Badi’*. Bayrut: Dor al-Fikr, 2001.